



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **ALISHER NAVOIY IJODIDA TALMEH SAN'ATINING O'RNI**

**Abduraimova Xafiza Allanazarovna**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada mumtoz o'zbek adabiyoti namoyandasi Alisher Navoiy ijodida talmeh san'atining o'rni va uning badiiy-estetik vazifalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida shoir g'azaliyoti, kichik lirik janrlar, tarkibband, tarji'band va musammatlarda qo'llanilgan talmehlar tahlil qilinib, ularning asar g'oyaviy mazmunini chuqurlashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqola qiyosiy-tarixiy tahlil, matnshunoslik, funksional tahlil va germenevtik talqin usullari asosida yozilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – talmeh san'ati vositasida Navoiy lirik qahramonining ruhiy holatini bo'rttirib ko'rsatish va didaktik g'oyalarni asoslash mexanizmlarini yoritishdir. Tadqiqot natijasida talmeh san'ati Navoiy ijodida shunchaki bezak emas, balki g'oyaviy-falsafiy mazmuni ixcham va ta'sirchan ifodalovchi universal vosita ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar.** Alisher Navoiy, talmeh san'ati, g'azal, lirik janrlar, badiiy obraz, tasavvufiy ramz, irfon, tarixiy prototip, estetik vazifa, badiiyat.

## **РОЛЬ ИСКУССТВА ТАЛМИХ (АЛЛЮЗИИ) В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ**

**Абдураимова Хафиза Алланазаровна**

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, базовый докторант

### **Аннотация**

В данной статье исследуется роль и художественно-эстетические функции фигуры стилистического приема талмих (аллюзия) в творчестве основоположника узбекской классической литературы Алишера Навои. В процессе исследования анализируются примеры использования талмиха в газелях, малых лирических жанрах, таркиббандах, тарджибандах и мусамматах поэта, раскрывается их значение в углублении идейно-содержательного пласта произведений. Работа подготовлена на основе методов сравнительно-исторического анализа, текстологии, функционального анализа и герменевтической интерпретации. Основная цель исследования — осветить механизмы усиления эмоционального состояния лирического героя и обоснования дидактических идей через призму искусства талмих. В результате исследования научно обосновано, что в творчестве Навои талмих является не просто декоративным элементом, а универсальным средством лаконичного и экспрессивного выражения идейно-философского содержания.

**Ключевые слова.** Алишер Навои, искусство талмих, аллюзия, газель, лирические жанры, художественный образ, суфийский символ, ирфан, исторический прототип, эстетическая функция, поэтика.

## **THE ROLE OF THE ART OF ALLUSION (TALMEH) IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI**

**Abduraimova Xafiza Allanazarovna**

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Basic Doctoral Student

### **Abstract**

This article explores the role of the talmeh (allusion) device in the literary works of the classic Uzbek poet Alisher Navoi and its artistic-aesthetic functions. The research analyzes

talmehs used in the poet's ghazals, small lyrical genres, tarkibband, tarji'band, and musammat, highlighting their significance in deepening the ideological content of his poetry. The article is written based on comparative-historical analysis, textology, functional analysis, and hermeneutic interpretation methods. The main goal of the research is to elucidate the mechanisms by which the talmeh device is used to amplify the emotional state of Navoi's lyrical hero and to substantiate didactic ideas. The results of the study scientifically prove that in Navoi's work, talmeh is not merely an ornament, but a universal tool for expressing ideological and philosophical content in a concise and impactful manner.

**Keywords.** Alisher Navoi, talmeh (allusion), ghazal, lyrical genres, artistic image, Sufi symbol, irfan (gnosis), historical prototype, aesthetic function, literariness.

Talmeh san'ati Alisher Navoiy ijodida salmoqli o'ringa ega. Shoir ijodida janrlar kabi san'atlar ham rang-barangdir. Navoiy ijodida talmeh san'atining qo'llanishini quyidagi asosda o'rganish mavzuning teranroq yoritilishiga yordam beradi:

1. Navoiy lirikasida, xususan, g'azaliyotida talmeh san'ati.
2. Kichik lirik janrlarda talmeh san'ati.
3. Tarkibband hamda tarji'bandda talmeh san'ati.
4. Musammatlarda talmeh san'ati.
5. Epik asarlarida talmeh san'ati.

Tadqiqot mavzusi Navoiy lirikasi bo'lganligi bois epik janrlardagi talmeh san'ati haqida to'xtalmaymiz.

Navoiy g'azaliyotida talmeh san'atining o'rni juda katta. Talmeh san'atining Navoiy g'azaliyotidagi o'rnini yaxshiroq tushunish uchun quyidagi baytda qo'llanilgan talmeh san'atiga e'tibor qaratish mumkin:

*Tosh eritti, vahki, Xusrav ko'ngliga kor etmadi*

*Shu'lalarkim, teshasidin sekridi Farhodning* [Навоий, 1988: 285].

G'azalda mashhur "Farhod va Shirin" dostonidagi Xusrav hamda Farhodning munosabatlariga ishora qilingan. Shoir ma'shuqaning sitamlarini Xusravga o'xshatmoqda. Ma'shuqa shunchalik toshbag'irki, hatto o'tli muhabbat ham uning qalbini erit olmaydi. Xuddi Farhodning teshasidan sachrab, toshni eritgan ishq uchqunlari Xusravning ko'ngliga kor qilmaganidek. Navoiy shu tariqa Farhod va Xusrav munosabati haqidagi voqeani talmeh asosida misol qilib keltiradi. Xusrav Navoiyning "Farhod va Shirin"ida ag'yor obrazi bo'lib, ikki oshiq qalbning bir-biriga yetishmoqlik yo'lida ko'p sitam qiladi va oxir-oqibat oshiqlarning bir-biridan ayro holda o'lim topishiga sabab bo'ladi. Farhod Shirinning muhabbatiga o'zining hunari — toshni saryog'dek kesishi orqali erishadi. Aynan shu jarayonda ikki oshiq uchrashib, tanishadi. Farhodning qo'lidagi tesha tosh kesish jarayonida shunday uchqunlar sachratadiki, u qattiq harsanglarni kesadi, eritadi, lekin Xusravning qalbini erita olmaydi. Xusrav ikki oshiqning muhabbatidan hayratga tushmasdan, kibr va manmanlik ortidan quvib, ularni halok qiladi. G'azalda ayni shu holatga ishora qilinib, talmeh san'atining go'zal namunasi yaratilgan.

Navoiy kichik lirik janrlarda ham talmeh san'atidan unumli foydalangan. Masalan, quyidagi qit'ada:

*Sinuuq safolki, may durdin ichkali topsang,*

*Qabul aylamagil jomi saltanat Jamdin.*

*Ilikka kirsu quruq non, maosh uchun chekma*

*Nashot ne'matining minnatini Hotamdin* [Навоий, 1990: 523].

Qit'a qanoat haqida, ya'ni minnatsiz mehnat orqali topilgan quruq nonning lazzati haqida. Qit'ada ikki o'rinda talmehdan foydalanilgan. Talmeh uchun tanlab olingan obrazlar Jamshid jomi va Hotam bo'lib, ushbu ikki obraz ham afsonalarga qorishib ketgan tarixiy shaxslarning prototiplaridir. Jomi Jam — oltindan yasalgan, ichida hech qachon may tugamaydigan, ichgan odamga rohat baxsh etadigan, ba'zi manbalarda esa tiriltirish xususiyatiga

ega deb tasvirlanadigan fors shohi Jamshidning jomidir. Hotam esa xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydigan, dasturxonni hamisha miskin-u boylarga ochiq bo‘lgan saxovatpesha kishi obrazidir. Ushbu qit‘ada Navoiy: agar may ichishga siniq bo‘lsa ham qadahing bo‘lsa, Jamshid jomini hadya etsalar ham qabul qilma; qo‘lingda bir burda quruq noning qolsa ham, Hotamning minnatli ne‘matini tilama, deb qanoatning buyukligi haqida eslatmoqda. Bir burda qotgan noning bo‘lsa, Hotamga ehtiyoj sezma, demoqda shoir. Qanoat eng katta boylik ekanligini ushbu obrazlarni misol keltirish orqali anglatmoqda.

Talmeh Navoiy ijodidagi deyarli barcha janrlarda murojaat qilingan san‘at turlaridan biridir. Quyidagi tarje‘band hamda tarkibbandlardan olingan talmeh san‘atiga oid misollar ushbu fikrni tasdiqlaydi.

**Tarje‘banddan:**

*Chekar go‘r ichra oxir gar jahonni*

*Kishi Bahromdek qilsun musaxxar* [Навоий, 1987: 614].

**Tarkibbanddan:**

*Gar yaqin ahlini Mansur kebi qatl etmas,*

*Bas nedindur shajar-u sunbuli dor-u rasani* [Навоий, 1989: 497].

Ikkala she‘rdan olingan baytlarda ham talmeh san‘ati qo‘llanilgan. Tarje‘bandda talmeh uchun Bahrom Go‘r qissasidan, tarkibbandda esa Mansur Xalloy shaxsidan foydalanilgan. Bu ikki mashhur tarixiy shaxs badiiy adabiyotdagi shu nomdagi obrazlarning prototipi hisoblanadi. Bahrom Go‘r haqida Navoiyning o‘zi “Sab‘ayi sayyor”da hikoya qilsa, Mansur Xalloy, asosan, lirik asarlarda mashhur.

Tarje‘bandda garchi inson Bahromdek dunyoni egallasa ham, oxir-oqibat go‘rga kiradi, deya Bahromning fojeali hayoti eslatilmoqda. Bahrom qissasi mashhur bo‘lib, badiiy adabiyotda insonlarni hamisha ogohlikka, xushyorlikka, kibrga berilmaslikka undash maqsadida eslatib turiladi. Allohning g‘azabiga duchor bo‘lib, toj-u taxti, lashkar-u mulozimlari bilan birga yer yutgan podshoh aynan Bahrom edi. Oxirining bunday fojiali bo‘lishi uning avval qilgan amallarining natijasi edi. Tarje‘bandda Navoiy aynan mana shu voqeani eslatib o‘tadi. Agar esingni yig‘masang, oxiring Bahrom kabi bo‘lib, yer ostiga kirasan, deydi.

Tarkibband Navoiy ijodida yagona janr bo‘lib, marsiya ruhida yozilgan. U ustozni Sayyid Hasan Ardasherining vafoti munosabati bilan bitilgan. Ustozining o‘limidan chuqur qayg‘uga botgan Navoiy davrdan, charxi kajraftordan o‘kinib yozgan she‘rida Mansur Xalloyni eslaydi. Mansur Xalloy tasavvuf ta‘limotining mashhur vakili, keyinchalik so‘fiylar orasida mashhur bo‘lgan “vahdat ul-vujud” ta‘limoti namoyandalaridan biridir. U o‘z davrida shariat qoidalariga zid ravishda “xudo insonda jilolanadi” degan qarashni ilgari surib, “Anal Haq” deb jar solgan. Shu bois mutaassib peshvolar tomonidan Bag‘dodda dorga osilgan. Mansur Xalloy o‘z so‘z-u e‘tiqodi uni dorga olib borishini bilganda ham so‘zidan qaytmagan. Unga ulamolar bir necha bor “Anal Haq” emas, “Huval Haq” degin, ozod bo‘lasan, deganlarida ham u: “Xoliq qolib, xalqqa yalinmayman”, deya javob bergan. Xullas, Mansur Xalloyning o‘limi undan keyingi tariqat vakillariga ham ibrat bo‘lgan. Navoiy baytda: agar chin oshiqdarni Mansur kabi qatl etmasa, dunyoning daraxti-yu sunbuli nima uchun dor-u arqon bo‘ladi, deydi. Shoir bu talmeh va tashbeh orqali dunyoning jafakorligi, foniyligini go‘zal bir shaklda ta‘kidlashga erishadi. She‘r marsiya ruhida bo‘lganligi uchun ushbu talmeh ustozining o‘limi ham ibratli ekanini, ham dunyoning jafakor ekanini eslatish maqsadida qo‘llangan.

Navoiy musammatlaridagi talmehning qo‘llanishi haqida tushunchaga ega bo‘lish uchun quyidagi muhammasga e‘tibor qaratish mumkin:

*Vasli savdosida menkim bastan g‘am bo‘lmisham,*

*O‘ylakim, Majnun balo xaylig‘a hamdam bo‘lmisham,*

*Vahki, rasvoliqqa olamda musallam bo‘lmisham,*

*Emdikim devona-yu rasvovi olam bo‘lmisham,*

*Vasl chun mumkin yo‘q o‘lturgay bu savdo koshki* [Навоий, 1989: 476].

Muhammasda mashhur Majnun qissasiga ishora orqali talmeh san'ati vujudga kelgan. Majnun "Ming bir kecha" hikoyalardan mashhur bo'lib kelayotgan Sharq adabiyotining an'anaviy obrazidir. Aslida u arab xalq og'zaki ijodida mashhur bo'lgan obraz bo'lib, badiiy adabiyotda ham keng shuhrat qozongan. Bunda xamsachilik an'anasining ham o'rni katta. Sababi xamsachilikning muhim shartlaridan biri aynan Majnun va Layli munosabatlariga bag'ishlangan dostonning mavjud bo'lishi edi.

Ushbu muhammasda Majnun obrazi kiritilib, uning taqdiriga ishora qilish orqali she'rdagi lirik ta'sirchanlik orttirilgan, ya'ni oshiq o'z holidan nolir ekan, Majnunning ahvolini eslatib, o'z holi bayonini bo'rttirib ko'rsatishga erishadi. Majnunning ahvoli qanday edi-yu, muhammasdagi oshiqning holi qanday? Majnun Qaysning laqabi bo'lib, bu so'z arabcha "junun" o'zagidan olingan va aqlini yo'qotgan degan ma'noni anglatadi. Qays Laylining ishqida, Laylining ruxsorida Yaratganning jilosini ko'rib, aqlidan ayriladi. Tun-u kunduzning farqiga bormaydigan kimsaga aylanib, ko'chalarda sarson-sargardon kezuvchi bo'lgach, odamlar unga Majnun deb laqab qo'yadilar. Asl ismi unutilib, hamma uni Majnun sifatida taniydi:

*Ishq ichra junun aning sifoti,  
Majnun deyilib jahonda oti.  
Bu dasht anga maqom-u maskan,  
O'ti gul-u xori dashti gulshan* [Навоий, 1992: 54].

Majnun shunday ahvoldagi inson ediki, xalq uni Majnun deb atasa nima-yu, Qays deb chaqirsa nima. Unga Laylining ismidan o'zga ism, Laylining xayolidan o'zga xayol, ovozdin o'zga ovoz bekor edi:

*...Ul bo'lub otin biluridin yot,  
Mundin dog'ikim, ne nimadur ot.  
O'z oti-yu qavm-u xayli oti,  
Yo'q yodida g'ayri Layli oti.  
"Layli, Layli" debon chekib un,  
El deb: "Majnundur, ushbu Majnun"* [Навоий, 1992: 112].

Muhammasda ham Navoiy oshiq holini xuddi shunday bayon qiladi. Ya'ni Majnun kabi balolarga hamdam bo'ldim, bu holimdan faqat yorning vasligina qutqara oladi, deydi. Talmeh san'ati bu yerda ham Navoiyga oshiq holining qanchalik og'ir ekanini bo'rttirib ko'rsatishda qo'l kelgan. Majnun obrazi va qissasiga ishora qilish ayni shu maqsadga xizmat qilgan va juda o'rinli chiqqan. U lirik qahramonning cheksiz azoblarini siqiq va ta'sirchan ifodalash imkonini bergan.

Xulosa shuki, talmeh san'ati Navoiy ijodida juda muhim o'rin tutadi. Bu shunday san'at turiki, shoir yoki yozuvchi ushbu san'atni faqat o'z tafakkuri doirasidan, saviyasidan kelib chiqibgina qo'llay oladi. Alisher Navoiyda bu san'atning unumdorligi ham uning tafakkur daryosi naqadar keng ekanini ko'rsatadi. Talmeh san'ati uchun Navoiy eng ko'p foydalangan obrazlar Xizr, Muso (a.s.), Iso (a.s.), Yusuf (a.s.), Shirin, Farhod, Majnun, Jamshid, Iskandar (Zulqarnayn) kabilardir. Bulardan tashqari yana ko'plab timsollar ham bor. Faol timsollardan obi hayot, obi hayvon, Jomi Jam kabilarni sanash mumkin.

Aytish mumkinki, talmeh san'ati barcha janrlarda bir xil darajada qo'llangan. G'azal janrida yozilgan she'rlar ko'p bo'lganligi uchun ushbu janrda talmeh san'ati ham ko'proq uchraydi. Bu esa ushbu san'at turining universal xususiyatini anglatadi. Navoiy ijodiyotida eng kichik janrlardan tortib eng yirik janrlargacha talmeh san'atiga murojaat qilingan. Ko'p hollarda oshiq holining bayoni izohlanishi, bo'rttirilishi kerak bo'lgan o'rinlarda ushbu san'atdan foydalanilgan, shuningdek, didaktik maqsadlarda ham undan unumli yaratilgan. Navoiy bu san'at turidan turli vaziyatlar izohi uchun foydalangan. Biz sanagan holatlar esa nisbatan ko'proq uchraydi. Talmeh san'ati Navoiy ijodiyoti, xususan, lirikasi badiiyatining ajralmas va faol qismi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1-jild. — Toshkent: Fan, 1987. — 724 s.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 3-jild. — Toshkent: Fan, 1988. — 616 s.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 4-jild. — Toshkent: Fan, 1990. — 560 s.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 5-jild. — Toshkent: Fan, 1990. — 554 s.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 6-jild. — Toshkent: Fan, 1987. — 568 s.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 9-jild. — Toshkent: Fan, 1992. — 563 s.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-jild. — Toshkent: Fan, 1990. — 727 s.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 18-jild. — Toshkent: Fan, 2002. — 304 s.
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20-jild. — Toshkent: Fan, 2005. — 506 s.
10. Бертельс Е. Э. Навои. Опыт творческой биографии. — М.: Издательство Академии наук СССР, 1948. — 256 с.
11. Is'hoqov Yoqubjon. So'z san'ati so'zligi. — Toshkent: Zarqalam, 2006. — B. 70.
12. Кнорозова Н. Ю. Образ Искандера в персидско-таджикской литературе. — СПб.: Наука, 2001. — 220 с.
13. Husayniy Ataulloh. Badoe' us-sanoe (A. Rustamov tarj.). — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. — B. 134.
14. Haqqulov I. Navoiy she'riyati va tafakkur. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2010. — 304 b.
15. Jomiy A. Haft avrang. — Dushanbe: Adib, 1987. — 704 s.
16. Karimov N. Mumtoz poetika masalalari. — Toshkent: Akademnashr, 2016. — 280 b.
17. Lewis F. D. Rumi, Past and Present, East and West. — Oxford: Oneworld, 2000. — 416 p.
18. Meisami J. S. Medieval Persian Court Poetry. — Princeton: Princeton University Press, 1987. — 416 p.
19. Nizomiy Ganjaviy. Iskandarnoma. — Tehron: Intishorat-i Amir Kabir, 2005. — 692 s.
20. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. — Toshkent: Ta'lim-media nashriyoti, 2019. — B. 116–120.